



TOSHKENT ADABIY MUHITI VA SIROJIDDIN SIDQIY XONDAYLIQIY IJODI

Abdujabborova Intizor Jamshedovna

Samarqand shahar 81-maktab

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17128643>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07- sentabr 2025 yil

Ma'qullandi: 11- sentabr 2025 yil

Nashr qilindi: 16- sentabr 2025 yil

KEYWORDS

qo'lyozma, xattot, Begali
Qosimov, Asad Asil,
Muhammadsharif Gulxaniy,
Nozil Xo'jandiy.

ABSTRACT

XX asr boshlarida yashab ijod etgan, ma'rifatparvar iste'dodli so'z san'atkorlardan biri Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiydir. Ushbu maqolada Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy va uning "Sad irshodi mullo Sidqiy Xondayliqiy" va "Zarbulmasali Sidqiy" asarlari tahlili bilan bog'liq izlanishlarimizni e'tiboringizga havola etamiz.

Резюме:

Сироджиддин Сидки Хандайлики – один из талантливых просветителей слова, живших и творивших в начале XX века. В данной статье мы предлагаем вашему вниманию наши исследования, связанные с анализом творчества Сироджиддина Сидки Хандайлики и его произведений «Сад иршоди мулла Сидки Хандайлики» и «Зарбулмасали Сидки».

Ключевые слова: рукопись, каллиграф, Бегали Касимов, Асад Асил, Мухаммадшариф Гюльхани, Нозиль Ходжанди.

Annotation:

Sirojiddin Sidki Handailiki is one of the talented educators of the word who lived and worked at the beginning of the twentieth century. In this article we bring to your attention our research related to the analysis of the creativity of Sirojiddin Sidki Khandaylyki and his works "The Garden of Irshodi Mulla Sidki Khandaylyki" and "Zarbulmasali Sidki".

Key words: manuscript, calligrapher, Begali Kasimov, Asad Asil, Muhammadsharif Gulkhani, Nozil Khojandi.

Toshkent adabiy muhitida adib, shoir S.Xondayliqiy o'z bilimini boyitdi va bir qator do'stlar orttirdi. Bular orasida ustozlari Kamiy, Miskin, Tavallo, Xislat, Vasliy, Abdulla Avloniy, Rizoiy kabi shoirlarning o'rni alohida edi. Shoirning husnixatga bo'lgan ishtiyoqi natijasida tez xattot bo'lib tanildi. U adabiy hayotga ham xattot sifatida kirib keldi.

1906-yili Alisher Navoiy, Jomiy, Sharofiddin Buxoriylarning asarlaridan toshbosma nashr uchun ko'chirdi. Bu orada S.Xondayliqiy tinimsiz she'rlar ham mashq qilardi. Toshkentda u xattot ustozlari bilan bir qatorda Mavlono Mirahmad Muftiy (Mir), Xayoliy, Iffat, Bog'istoniy, Rizoiy Andijoniy, Mavlono Hoji Muhyi Xuqandiy, Mavlano Abdulkarimbek (Kamiy), Mavlono Sayid Haybetulloh (Xislat), Mullo G'azanfar, Munis Toshkandiy kabi shoirlar

muhitida qalamkash sifatida shakllandi. Bulardan tashqari Mavlono Sayyid Ahmad Vasliy Samarqandiy, Mavlono G'urbatiy Turkistoniy, Mavlono Abdulqodir Qoshg'ariy kabi olimlardan she'riyat nazariyasi bo'yicha ta'lim oldi. Har tomonlama o'sib borayotgan iste'dod egasi – S.Xondayliqiy Tashkent adabiy muhiti juda qadrlar edi. Bu davr Tashkent adabiy muhiti haqida A.Jalolov atroficha ma'lumot berib o'tgan.

Hamma ishda adolat istovchi Xondayliqiy aldanchilik va qabohatga chidab turolmas edi. "Domlam ta'magirlik, manmanlik, g'iybat va shikoyatga o'xshagan yomon fe'llarni yoqtirmas edilar",-deb xotirlaydi Adib, shoir S.Xondayliqiyning shogirdi sharqshunos olim Abdulla ota Nosirov. S.Xondayliqiy g'azalkentlik bir qozining kirdikorlarini hajv tig'i ostiga oladi. Natijada to'g'ri so'z shoir 1909-1911 yillarda ta'qibga uchrab, Andijonga ketishga majbur bo'ladi. Adib, shoir S.Xondayliqiy 1912-1918-yillar davomida yana Tashkentda yashadi. Abdulla Nosirovning ma'lumot berishicha, bu yillarda u Kesakqo'rg'on, Beklarbegim, Ko'kaldosh madrasalarida, shoir Xislatning mehmonxonasida (1911 y.), Chorsudagi saroyda (1912 y.), Charxchilik mahallasida (1917 y.) Shayx xovandi Taxur, Zanjirlik mahallasida (1917 y.) istiqomat qilgan. Uning ijodi uchun bu yillar juda samarali bo'ldi. Bosma kitoblarning deyarli barchasi shu yillarda chop etildi. Shoir xalq bilan, ziyo ahli bilan, qalam sohiblari, matbaachilar bilan yanada yaqin aloqada bo'ldi. Bu orada bir qancha shogirdlar yetishtirdi. Ular orasida Mannon Uyg'ur, Fozil Qori va Abdulla Nosirovlar nomi ko'pchilikka tanish. Adib, shoir S.Xondayliqiy 1919-yildan yana o'zi tug'ilgan yerlarga qaytib umrining oxirigacha (1934 y.) Parveztepa qishlog'ida yashadi. Bu yillarda u mutolaa bilan mashg'ul bo'ldi, o'z bilimni yanada oshira bordi. Tabobatga oid kitoblarga, ayniqsa, qiziqish bildirdi. Hamqishloqlari va o'sha atrof, yaqin-yiroqdagilarga hayotiy, maishiy, diniy, tibbiy masalalarda dono maslahatgo'y bo'lganini kuyovi Obid ota iftixor bilan xotirlaydi. Ma'lumki, ijtimoiy muhit ijodiy jarayonni boshqaradi. Ijodkorlarning ro'yobga chiqishi ham ko'p jihatdan ijtimoiy muhitga bog'liq. Adib, shoir S.Xondayliqiy o'z zamonasida qalamkash ijodkor uchun qo'yiladigan davr talabiga muvofiq qalamkashlik sohalarining keng jabhalarida jonbozlik ko'rsata oluvchi har tomonlama yetuk san'atkor bo'lib yetishdi. U klassik she'riyatning juda ko'p turlarida ijod qiluvchi zullisonayn shoir, adib, arab va fors tillaridan mohir tarjimon, forsiy va o'zbek tillarida o'nlab asarlarni ko'chirgan xattot, dono murabbiy, nozikta'b rassom sifatida faoliyat ko'rsatdi. Jumladan, u 1911-yilda o'zbek xalq hofizi Mulla To'ychi Toshmuhammedov ijrosida aytilgan qo'shiqlar asosida shoir Xislat tuzgan "Armug'oni Xislat" toshbosma bayoziga kotiblik qildi. Adib, shoir S.Xondayliqiy har sohada ijod qilmasin uning she'riyatga bo'lgan qiziqishi o'sib boravergan [1, 3].

Ma'lumki, ijtimoiy muhit ijodiy jarayonni boshqaradi. Ijodkorlarning ro'yobga chiqishi ham ko'p jihatdan ijtimoiy muhitga bog'liq. S.Xondayliqiy o'z zamonasida qalamkash ijodkor uchun qo'yiladigan davr talabiga muvofiq qalamkashlik sohalarining keng jabhalarida jonbozlik ko'rsata oluvchi har tomonlama yetuk san'atkor bo'lib yetishdi. Adib, shoir S.Xondayliqiy mumtoz she'riyatning juda ko'p turlarida ijod qilgan zullisonayn (ikki tilda ijod qiluvchi) shoir, arab va fors tillaridan mohir tarjimon, adib, forsiy va o'zbek tillarida o'nga yaqin asarlarni ko'chirgan xattot, nozikta'b rassom, dono murabbiy, sifatida faoliyat yuritadi. Xususan, u 1911-yilda o'zbek xalq hofizi Mulla To'ychi Toshmuhammedov ijrosida aytilgan qo'shiqlar asosida shoir Xislat tuzgan "Armug'oni Xislat" toshbosma bayoziga kotiblik qildi. Adib, shoir S.Xondayliqiy har sohada ijod qilmasin uning she'riyatga bo'lgan qiziqishi o'sib boravergan.

Darhaqiqat, S.Xondayliqiyning 1911-1917-yillardav chop etilgan toshbosma asarlaridan tashqari inqilobdan umrining oxirigacha bo'lgan davrda bosilib chiqqan birorta asarini uchratmadikki, bu shoirning kuyunch bilan aytgan gaplarini to'la tasdiqlaydi. Ammo, O'zFASHI qo'lyozmlar fondida Abdulla ota Nosirov turli nomlar ostida jamlagan to'plam(papka)lar borki, ularda parokanda ash'or va maktublar, "Til ochqusi" nomli izohli lug'at, notamom asarlar, "Futuh ush-Shom" asarining ba'zi sahifalari, isloh qilingan arab-o'zbek yozuvida bitilgan hikmatlar kabi qator ishlari qo'lyozma holida qolib ketganidan dalolat beradi. Inqilobdan keying adabiy merosini bu taxlitda qolib ketishi jamiyatdagi o'zgarishlarning Sirojiddin Adib, shoir S.Xondayliqiy ijodining keying ravnaqiga naqadar noqulay vaziyat yuzaga keltirganini anglab olish uchun kifoya qilsa kerak.

S.Xondayliqiy nasriy asarlarining mavzu ko'lami keng va rang- barangdir. Yuksak axloq mezonlari va ilm- ma'rifatga da'vat adib, shoir S.Xondayliqiyning she'riyatidagi kabi nasrida ham asosiy g'oyalardan hisoblanadi. Bundan tashqari adib o'z asarlarida aql va bilim egasi, insoniy fazilatlariga ega bo'lgan go'zal, andishali va odobli ayol siymosini yaratishga harakat qiladi. Chunki ona, har insonning eng birinchi murabbiysi hisoblanadi. Ilm va ilm sohiblarini e'zozlash kerakligini adib, shoir S.Xondayliqiy asarlarida takror-takror uqtirganini kuzatishimiz mumkin. Buni chuqur his etgan Adib, shoir S.Xondayliqiy, shoir sifatida ayolning go'zal husni - jamolini kuylab kelgan bo'lsa, nosir sifatida esa ayol xulqining go'zal bo'lishiga urg'u beradi.

Oila obodligi va tinchligi ko'p jihatdan ayol kishiga bog'liqligini, oila mustahkamligida fidoiylikni talab qilishini ko'ngli nozik ayollarga kichik ishoralar orqali uqtirmoqchi bo'ladi.

Jahon adabiyotshunosligida "agiografiya" degan maxsus soha bor. Unda anbiyolar hamda avliyolarning hayot yo'li badiiy aks ettiriladi. Faqatgina, bu bizning adabiyotshunosligimizda hali yo'lga qo'yilmagan. Sababi unga salkam dinni targ'ib qilish sifatida qarab kelishganligi uchun rad etilgan. Vaholanki, o'tmish adabiy merosimizdagi manoqiblar, rivoyatlar, turli risola, me'rojnomalar va qiyomatnomalar bu sohaning bizda g'oyat taraqqiy qilganini ko'rsatadi.

S.Xondayliqiy nasriy merosining salmoqli qismini diniy-axloqiy asarlar tashkil qiladi desak adashmaymiz. Adib, shoir S.Xondayliqiyning 1914-yilda chop etilgan "Tazkirayi Imomi A'zam" asari shunday asarlardan biri sanaladi. Islom olamida, sunniy "Hanafiya" mazhabining asoschisi Abu Hanifa an- No'mon ibn Sobit (699/700-767) ya'ni Imomi A'zam nomi bilan mashhur bo'lgan shaxs haqida bir qancha tazkiralar, yodnomalar, manoqiblar maydonga kelgan, rivoyatlarning esa soni va sanog'i yo'q.

"Sad irshodi Mullo S.Xondayliqiy Xondayliqiy" ("Mullo Adib, shoir S.Xondayliqiy Xondayliqiyning yuz nasihati") Sharqda keng tarqalgan bo'lib, xalq donoligi namunasi - pand o'gitlar, maqollar, hikmatli so'zlar ko'rinishidagi qaydlardan iborat. Bu o'gitlarning ko'pchilik qismi umumiy g'oya jihatidan o'tmish donishmandlarining hikmatlari bilan hamohang hisoblanadi.

S.Xondayliqiy umuminsoniy aqidalarga sadoqatgina insonga mumtozlik baxsh etishiga ishonadi va ishontirishga harakat qiladi. Adib o'z o'gitlarida hayotni o'zining past-balandliklari, ezgulik va nayranglari bilan aks ettiriladi. Inson tabiatiga fazilatlar ham, zaifliklar ham begona emasligi uqtiriladi.

S.Xondayliqiy o'gitlarining asosiy g'oyaviy mazmunini donolik, hushyorlik, kechirimlilik, mardlik, ilm, oriyat, shukur shuningdek, adovat va xusumatdan saqlanish, ayollarga shafqat

kabi umuminsoniy xislatlar tashkil etadi. Adib nasihatlarini asosan, axloq- odobga oid bo'lib, ular diniy aqidalar, o'zaro munosabat madaniyati va fazilat kasb etish yo'l- yo'riqlaridir.

Adib, shoir S.Xundayliqiy fikricha "Dunyoning rohati uch narsadir: zikri subhon va tilovati Qur'on va ziyorati yoron".

Zikri subhon, tilovati Qur'on,
Yaxshi qilsang ziyorati yoron.
Bu ishingdan savob topqaysen,
Bas bu xizmat sorig'a chopqaysen [2, 4].

Diniy- didaktik mavzudagi ushbu hikmat orqali yozuvchi kishilarni Qur'on tilovatiga, doimo Ollohni zikr etishga, do'st- birodarlarni doimo yo'qlab turishga chorlamoqda. Agar shunday qilsa savobga ega bo'lishi haqida aytilmoqda.

"Sad irshodi Mullo Sidqiy Xundayliqiy" risolasining yetakchi g'oyalardan bo'lgan do'stlikning (ziyorati yoron) Ollohning zikri va Qur'on tilovatidek yuksak tushunchalar bilan birga kelishi diniy va dunyoviy motivlarning hayotda ham ajratib bo'lmazligini ko'rsatadi. "Tangriga iymon keltirishdan keyingi amallarning afzali bu odamlar bilan do'stlashishdir" [2, 3], degan hadis ham buni tasdiqlaydi.

Shoirning o'z tili bilan aytganda, bu kitobida u ma'rifatga sakkiz turli bob ochgan. Bular: sultonlar haqida, faqirlar axloqi haqida, qanoatning foydasi haqida, sukutning foydasi haqida, ishq va yigitlik haqida, qarilikdagi zaiflik sifatleri haqida, tarbiyaning ta'siri haqida va suhbat odoblari haqidagi hikmat, ibratlar.

Bu boblarning har birida ma'lum miqdorda hikoyatlar bor, har bir hikoyatning oxirida masal yoki falsafiy chekinishlar berilgan. Masalan, to'rtlik va baytlar yozuvchi mulohazalarini izohlashga xizmat qiladi.

Har kishi yetti nimarsa uzra ixtiyor qilsa, eranlar martabasig'a erishur: faqirlikni boyluk uzra, ochliqni to'qliq uzra, shikastliqni zo'rliq uzra, xorlikni azizlik uzra, tavozeni manmanlik uzra, g'amni shodlik uzra, o'limni tiriklik uzra.

Kishining esa, gar himmati baland
Dilin qilmag'ay oqcha mehrida band.
Agar tutsa, yo'qluq xirad yoqasin,
Tutar mardlar ham gadolik yo'lin [2, 3].

To'rtlikning dastlabki ikki misrasida oliyhimmatlilik fazilati ulug'langan. Kimda insof bo'lsa, birovning qo'lidagi pulga qaramaydi. Undan ta'ma qilmaydi.

Bu asarda turli ijtimoiy tabaqalar ishtirok etgan: hukmdorlar, amaldorlar, shayxlar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, cho'ponlar, o'g'rilar, savdogarlar, pahlavonlar va boshqalar.

Xaloyiqning badtarrog'i ul kishidurki, begunoh xalqni dushman tutqay, mardumga izo va jafu yetkurmakni ravo ko'rg'ay va kishining xato va yozuqidin o'tmag'ay, uzrni qabul qilmag'ay [3].

Nasriy tarzda bayon qilingan ushbu ibratda bag'ritosh kimsalar qoralanmoqda. Ya'ni begunohlarni o'ziga dushman bilib, ularga jabr-u jafu yetkazishdan ham toymaydigan, kechirimlilik qo'lidan kelmaydiganlar insonlarning eng yomoni sifatida e'tirof etilmoqda.

S.Xundayliqiy o'z g'oyaviy niyati asosida bayon qilingan ushbu ibratda muayyan sarguzashtni izchil mantiq bilan bayon etishga o'tadi. Tom ma'noda olganda, barcha hikoyatlar didaktik mazmundagi hikoyatlardir. Masalan:

To'rt nimarsa nodonlik dalili turur: biri o'zidin donoroq bila janjal qilishmak, ikkinchisi sinamag'on kishig'a ishonmoq, uchunchisi xotunlar makridan emin bo'lmoq, to'rtinchisi yosh bolalar bila o'lturushmoq [4].

S.Xundayliqiy kichik voqeani hikoya qilish orqali bayon qilingan ushbu ibratda qissadan hissa chiqarish bilan kishilarga pand- nasihatlar qiladi, o'gitlar beradi. Ijtimoiy- siyosiy, axloqiy- ta'limiy masalalarga doir xulosalar beradi.

Xuroson maliklardin biri malik Sulton Mahmud Subuqteginni tushunda ko'rdi. O'lganidan yuz yil so'ngra, barcha so'ngaklar to'kulmish edi. Illo ko'zlar o'ynar, dag'i nazar qilur. Bu tush ta'birina jumlai jahona ojiz qoldilar. Bir faqir kelib, bularning mushkulini hal etib, aytti: nechakim aning mulki o'zgalari alinda bo'lg'ay, muning ko'zlari ul mulk ortincha qolg'ay.

Ey necha bekni, malikni yebtur bu jahon
Kim alardin yer yuzinda qolmadi zarra nishon.
Xayr qil, ey ne'mati ko'p xoja sen andin burun
Kim yurub degay munodiy qolmadi xoja falon [2, 4]

Bunda avvalambor dunyoning o'tkinchiligi haqida fikr ketyapti. Bu dunyoga hech kim shoh ham, gado ham abadiy yashab qololmaydi. Bir kun kelib hamma vafot etadi. Shunday ekan xayr- ehson qil. Bu dunyoda o'zingdan keyin qoladigani - shu.

S.Xundayliqiy ushbu risolasida ayollarga "shahvat ko'zi birla emas, shavqat ko'zi birla" qarashga lozimligini uqtirib o'tadi. Adib ayollar zimmasidagi oilani saqlab qolishdek, sharafli burchni ulug'laydi. Uni muqaddas ijtimoiy vazifa sifatida hamma narsadan ustun qo'yadi.

Asar g'oyaviy mundarijasining ko'rinishicha, shoir pand- nasihat qilish yo'li bilan adolat va osoyishtalik o'rnatish, bayon qilingan ushbu ibratda zolim hukmdor va amaldorlarni jilovlash, yurtni qat'iy qonun- qoidalar asosida boshqarish, kishilarning xulq- atvoridagi kamchiliklarini tuzatish mumkin deb o'ylaydi.

Kerakkim, shah o'lg'ay siyosat bila,
Bori ishda bo'lg'ay adolat bila.
Vaziri omonatlik o'lg'ay ani,
Dabiri diyonatlik o'lg'ay ani.
Raiyat kerakkim itoat qilur,
Ki, bu ish aro yaxshi rohat qilur. [2].

She'riy parcha orqali yozuvchi mamlakat hukmdori yurtni boshqarishda siyosatli bo'lmog'i kerakligini, shuningdek, har bir ishda adolatga yondashmog'i kerakligini ta'kidlab o'tgan. Bu paytda xalqdan hukmdorga itoat etmoqlik talab qilinar edi. Agar shular jamlansa, yurtda rohat- farog'at bo'ladi, demoqchi.

Adib orzu umid va maqsadlarini hikoyalarda rostgo'ylik, to'g'rilik, marhamat va sadoqat kabi oliyjanob insoniy fazilatlarini, xis-tuyg'ularni targ'ib etib, xalq ongiga, xayot tarziga singdirishga harakat qiladi.

Odamiylik uldurki, kimki senga yomonliq qilsa, ani o'rnida yaxshilik qilg'aysen va kimki sendin uzulsa, anga ulang'aysen va kimki noumidlik xatini noming uzra cheksa ani ehsonining doirasida o'zingni olg'aysen [1, 2].

Yozuvchi odamiylik tushunchasiga shunday izoh beradi, birov sizga yomonlik qilganda unga yaxshilik qila olsangiz, birov sizdan yuz o'girib ketmoqchi bo'lganda siz bunga yo'l qo'ymay orani yumshata olsangiz, siz odamiylikning uddasidan chiqqan bo'lasiz.

“Sad irshodi Mullo Sidqiy Xondayliqiy” asarining tuzilishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, asar qisqa- qisqa nasriy bayon qilingan hikmatlardan tashkil topgan. Ijodkor ushbu qisqa hikmatlardagi fikrini izohlash va to’ldirish maqsadida she’riy parchalardan foydalangan.

Asarning xalq donoligining namunasi sifatida e’tirof etilishining sababi shundaki, unda qisqa fikrlar orqali juda keng ma’nolarni ochib beruvchi ibratlardan tashkil topgan. Umuman olganda, xalqimiz o’z fikrini qisqa, lo’nda va asosli izohlay oladiganlarni dono sanaydi. Shuningdek, asar barcha mavzulardagi, masalan, diniy, ijtimoiy, maishiy hayot va boshqa mavzulardagi ko’plab ibratlar o’z ichiga qamrab olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. -Т.: “Маънавият”,2004.
2. Сидқий Хондайлиқий. Мезони шариат -Т.: Наврўз, 1992.
3. Қосимов Б.,К.Жавҳарова.Дин ва дунёни ушлаган шоир. С.Хондайлиқий. Танланган асарлар. -Т.: “Маънавият”, 1998.5-31- бетлар.
4. Жалолов А. Жадид адабиётида миллий озодлик ва истиқлол ғоялари// Ўзбек тили ва адабиёти,- Т.:1996.

